RUS ADABIYOTSHUNOSLIGIDA URUSH MAVZUSIGA DOIR ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Xolmatov Oybek Umarjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti
e-mail: oybekumarovich95@gmail.com

Annotatsiya
Mazkur maqolada dunyo adabiyotshunosligining eng dolzarb mavzularidan biri bo‘lgan badiiy adabiyotda urush mavzusining ifodalanishi masalasi rus adabiyotshunosligidagi tadqiqotlar doirasida o‘rganilib, tahlilga tortilgan. Rus adabiyotshunosligi urush mavzusining badiiy talqini bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlarga boy bo‘lib, mazkur ishlarni tasniflash va ulardagi asosiy ilmiy qarashlarni tizimlashtirish samarador tahliliy natijalar beradi. Shunga asosan maqolada XX–XXI asrlarda doir rus tadqiqotchilarining urush mavzusiga doir ishlari o‘rganilib, badiiy adabiyotda urush mavzusi, urush kishilari tipologiyasi, davr va qahramon muammolariga asosiy e’tibor qaratilgan. Tahlillar davomida keltirilgan fikrlar tegishli manbalardan olingan iqtibos va havolalar orqali dalillangan. Maqola so‘ngida olingan natijalar xulosalangan.
Kalit so‘zlar: *mavzu, urush, qahramon, tahlil, talqin, g‘oya, tipologiya.*

KIRISH

Rossiya tarixida yuz bergan son-sanoqsiz urushlar XIX asrdan boshlab yuqori darajaga ko‘tarilgan rus yozma adabiyotining asosiy mavzulari qatoridan o‘rin oldi. XIX asrda Pushkinning “Kavkaz asiri”, Lermontovning “Qochqin” dostonlari, Lev Tolstoyning “Sevastopol hikoyalari”, “Hojimurod”, “Urush va tinchlik” kabi asarlari buning yorqin dalilidir. XX asr rus adabiyotida esa urush mavzusi Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari hamda afg‘on urushining badiiy talqini natijasida yetakchi mavzuga aylandi. Bu rus adabiyotshunosligida ham o‘z aksini topdi. A.Malishev, Chjen Lu-Yan, A.Ivanov, I.Gerasimova, P.Toper, D.Aristov, Y.Zadonskaya, N.Vigovskaya, V.Volkova kabi olimlarning dissertatsiya, monografiya va maqolalari shular jumlasidandir.

Asosiy qism. A.Malishev o‘z nomzodlik dissertatsiyasida XIX asrning ikkinchi yarmi adabiyotida urush tasvirlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etgan. Olim Lev Tolstoyning urush mavzusidagi asarlari misolida bu davr rus harbiy prozasida oddiy inson obrazi yetakchi o‘ringa chiqqanligini qayd etadi: “Yozuvchilar asarlarida “kichkina odam” obraziga markaziy o‘rin berish orqali urush voqealari, urush kishisi obrazini haqqoniy aks ettirishga erishdilar” [1:17]. Qahramonlik eposlari yoki klassik adabiyot namunalaridan farqli o‘laroq bu davrga kelib urush mavzusidagi asarlarda urush fojialari, urush ishtirokchilarining murakkab taqdirlari tasviri asosiy o‘rinni egalladi. Malishev ham shu jihatga e’tibor qaratgan holda Tolstoy ijodi ta’sirida boshqa yozuvchilar ham urushni yangicha shakllarda aks ettirganliklarini ta’kidlaydi: “L.Tolstoyda urushni tasvirlash jarayoni tantanavor, romantik pafosdagi qahramonlik, ulug‘vorlik talqinisiz kechadi. Tolstoy urushni qon, azob-uqubat, g‘am tasvirlari orqali ifodalaydi. Urushni tasvirlashning Tolstoyga xos tamoyillari A.V.Vereshchagin, V.M.Garshin, N.A.Maslovlarning asarlarida uchraydi” [1:19]. A.Malishevning yuqoridagi qarashlariga mos fikr Chjen Lu-Yan tomonidan ham ilgari surilib, “Urush va

tinchlik”da urush inson tabiatiga mutlaqo zid voqelik ekanligi aniq shakllantirilgan”ligi qayd etilgan [2: 4]. Ko‘rinadiki, yuqoridagi ikki tadqiqotda rus adabiyoti ning patsifistik xarakteriga asosiy e’tibor qaratilgan. A.Malishev va Chjen Lu-Yanlar Tolstoyning urush borasidagi qarashlari insoniyat tarixidagi barcha urushlar buzg‘unchilik va mantiqsizlik ekanligiga asoslanishini qayd etadilar. Ayniqsa, “Sevastopol hikoyalari” turkumi hamda “Urush va tinchlik” epopeyasida bu xususiyat aniq ko‘rinadi. Tolstoy tasvirlagan askar va ofitser obrazlari urush sababli faqat azob va o‘limga duchor bo‘ladi. Bu xususiyat urushni rad etuvchi g‘oyalar XIX asrdan boshlab rus adabiyotiga ham kirib kelganini anglatadi.

Malishev va Chjen Lu-Yan urush mavzusining XIX asr rus adabiyotidagi talqinini o‘rgangan bo‘lsa, A.Ivanov, I.Gerasimova, P.Toperlar XX asr rus adabiyotida jahon urushlari talqinini tadqiq etadilar. Rus adabiyotida Birinchi jahon urushi talqinini o‘rgangan A.Ivanovning fikriga ko‘ra, “Yozuvchi va urush” masalasi jamiyat madaniy hayoti jarayonida rus adabiyoti oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ydi:

1) urushning millatchilik yoki antigermanizmdan iborat buzg‘unchi kayfiyat keltirib chiqarishini oldini olish;

2) bunyodkorlik va hayot tuyg‘usini vayronkorlik va o‘limga qarama-qarshi qo‘yish;

3) madaniyatning barbod bo‘lishi va ommaning yovuzlashishini oldini olish [3:10].

Birinchi jahon urushi yillari rus adabiyotida jangchi obraziga munosabat sezilarli darajada o‘zgardi. A.Ivanovning ta’kidlashicha, XIX asrning ikkinchi yarmi adabiyotida ofitser va askar munosabatlari tasvirida ijtimoiy mavqe jihatidan tabaqalanish yaqqol ifodalangan bo‘lsa, Birinchi jahon urushi yillari adabiyotida bu xususiyat o‘zgardi. Endilikda ofitser-askar munosabatlarida o‘zaro birodarlik xususiyati aks ettirila boshladi. Bu yaqinlik o‘lim xavfi ostidagi odamlarni birlashtiruvchi frontdagi birodarlik hissi, o‘zaro yordamga ishonch, urushning psixologik oqibatlari kabi xususiyatlarning natijasi edi [3:21]. Harbiy hayotda eng muhim belgi hisoblangan ierarxik tartib (ofitser-askar munosabati, harbiy tabaqalashuv)ning insoniy dard va tuyg‘ular oldida ahamiyatini yo‘qotishi tasviri badiiy asarlarda urushni qoralash vazifasini bajardi.

Birinchi jahon urushining rus she’riyatida tutgan o‘rni masalasini o‘rgangan I.Gerasimova 1914–1915-yillarda harbiy mavzuda, vatanparvarlik ruhida yozilgan she’rlar, xususan, F.Sologub, N.Agnivtsev, S.Gorodetsko, V.Bestujev kabi shoirlar ijodini tahlilga tortadi. Maqolada muallif rus harbiy lirikasining siyosiy buyurtma sifatida emas, frontchi shoirlarning kechinmalari mahsuli sifatida qayd etadi [4: 19-22]. Umuman, harbiy lirika namunalariga baho berishda tarixiy va ijtimoiy-siyosiy omillarni inobatga olish muhim sanaladi. Birinchi jahon urushining dastlabki yillarida barcha ishtirokchi mamlakatlarda mafkuraviy targ‘ibot sababli urushga vatan oldidagi muqaddas burch sifatida qaralgan. Bu omil badiiy adabiyotga, ayniqsa, eng hozirjavob tur bo‘lgan lirikaga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Gerasimova tomonidan o‘rganilgan harbiy lirika namunalari sof badiiy kechinma bo‘lish bilan bir qatorda, ularda davr siyosati va mafkurasining ta’siri ham yo‘q emasligini ta’kidlash lozim.

I.Gerasimova Birinchi jahon urushi mavzusidagi harbiy lirikani o‘rgangan bo‘lsa, P.Toperning “Urush va tarix” nomli monografiyasida sobiq SSSR adiblari tomonidan Ikkinchi jahon urushi mavzusida yaratilgan asarlar tahlil etiladi. Konstantin Simonov,

Mixail Sholoxov, Boris Polevoy, Mixail Svetlov, Aleksey Surkov, Anatoliy Safronov asarlari misolida Sovet adabiyotining jahon miqyosida tutgan o‘rni masalasiga alohida urg‘u beradi. Ikkinchi jahon urushi haqidagi asarlarning umumiy xususiyatlari, obrazlarning o‘xshash va o‘ziga xos jihatlari tadqiq etiladi [5: 128]. Sovet davri adabiyotlarida “Ulug‘ Vatan urushi” deb qayd etilgan Ikkinchi jahon urushi barcha xalqlar adabiyotida o‘z ifodasini topgan. Biroq bu borada Sobiq Ittifoq adabiyoti alohida ajralib turadi. Buning asosiy omili esa kommunistik partiyaning adabiyot ustidan hukmronligi bo‘lib, urush yillari asosan harbiy vatanparvarlik mavzusida, urushdan keyingi yillarda esa g‘alabani madh etish ruhidagi asarlar kommunizmning porloq kelajagi va muqarrar g‘alabasiga ishora sifatida talqin qilingan. Toper ham masalaga shu nuqtai nazardan yondashadi. Olimning qarashlari sotsialistik realizmga xos g‘oyalar doirasida cheklanadi.

XX asrning so‘nggi choragi – XXI asr boshlarida yuz bergan afg‘on va chechen urushlari rus harbiy prozasining mavzular ko‘lamini yanada kengaytirddi. Natijada zamonaviy rus adabiyotshunosligida ham urush mavzusiga doir yangi tadqiqotlar yaratildi. Xususan, D.Aristovning o‘z nomzodlik dissertatsiyasida zamonaviy rus harbiy prozasining shakl va mazmun xususiyatlarini tadqiq etib, 2000-yillar harbiy prozasi va XX asrning 50–60-yillaridagi “leytenant prozasi”ni qiyosiy aspektda o‘rgangan. Aristov “Leytenant prozasi”da iroda va jasorat talqini yetakchi xususiyat kasb etishi, urush insonning ma’naviy-axloqiy sinovi sifatida ifodalangan bo‘lsa, bundan farqli ravishda zamonaviy harbiy prozada o‘z xohishiga qarshi o‘lim ostonasiga yuborilgan inson taqdiri masalasi asosiy mazmunni tashkil etishini ta’kidlaydi [6:14]. Aristovning bu qarashlari rus adabiyotida urush mavzusining turli davrlarda turlicha talqin etilishini asoslash bilan birga XX asr o‘zbek harbiy prozasiga ham mos keladi. O‘zbek harbiy prozasida ham XX asrning 50–60-yillarida qahramonlik, vatanparvarlik, tantanavorlik ruhi ustun edi. Mustaqillik davridan keyingi zamonaviy harbiy proza namunalarida esa urushni qora bo‘yoqlarda tasvirlash kayfiyati ustunlik qilmoqda.

Rus tadqiqotchisi V.Volkova o‘z dissertatsiyasida 1980–2000-yillar davri rus harbiy prozasini o‘rganish jarayonida zamonaviy harbiy prozada konseptlar tasnifi masalasiga asosiy e’tiborini qaratadi. Muallif XX asr oxiri va XXI asr boshlarida rus harbiy prozasining tematik jihatdan eng keng tarqalgan ikki guruhini ajratib oladi:

1) “afg‘on” prozasi;

2) “chechen” prozasi [7: 3-4].

Muallif har ikki mavzudagi asarlarda ham urush adolatsiz va g‘ayriinsoniy voqeilk sifatida talqin etilganligini qayd etib, zamonaviy rus harbiy prozasining umumiy konsepsiyasini belgilaydi. Yozuvchilarning voqelikka badiiy munosabati fonida urush konseptual jihatdan buzg‘unchilik, vayronagarchilik tushunchalariga mos kelishi ta’kidlanadi.

Y.Zadonskaya ham zamonaviy rus harbiy prozasi bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqotida yozuvchilarning urushga munosabati masalasini tasniflaydi. Bu tasnif jarayonida yozuvchilarning urushni talqin etish tamoyillarini ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruh vakillari ijodida Lev Tolstoy va V.M.Garshin an’analarining davomi tarzida urushning vayronkor xususiyati, fojiali oqibatlari tasviri asosiy o‘rinda tursa, ikkinchi guruh vakillari ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari ta’siri sababli urush vatan

oldidagi muqaddas burch, xalqni birlashtiruvchi jarayon sifatida talqin etilishi asoslanadi [8:17]. Zadonskayaning yuqoridagi tasnifi zamonaviy rus adabiyotida urushga munosabat masalasi faqat salbiy xarakterdagi bir tomonlamalikdan holi ekanligini asoslaydi.

N.Vigovskaya ham zamonaviy rus harbiy prozasini tadqiq etgan holda asosiy e’tiborini Chechen urushi mavzusi, hujjatli prozada badiiyat, memuar-avtobiografik xarakterdagi hujjatli harbiy proza namunalarining badiiy asar sifatidagi xususiyatlarini o‘rgangan. Olimning ta’kidlashicha, muallif voqealarni hujjatli tarzda bayon etishi shakl va vosita xolos [9:15]. Chindan ham chechen urushi mavzusidagi harbiy proza namunalari sirtdan qaraganda faktlardan yig‘indisidek ko‘rinsa-da, unda muallifning urushga nisbatan sub’ektiv munosabati, ruhiy tasvir va ong oqimi vositasida urushning vayronkor mohiyatini badiiy uslubda ochishga asosiy urg‘u berilgan. Vigovskaya hujjatli proza namunalarini ham to‘laqonli badiiy asar sifatida qayd etib, avtobiografik tasvirda muallif his-tuyg‘usi va psixologiyasi badiiy bo‘yoqlarda yaqqol namoyon bo‘lishiga asoslanadi.

XULOSA

Umuman, rus adabiyotshunosligida urush mavzusining o‘rganilishi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda xilma-xil yondashuvlarning guvohi bo‘lish mumkin. Bu jarayon badiiy asarlardaga urush talqinlariga mos tarzda o‘zgarib borgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab urushning kulfat, vayronagarchilik manbayi sifatida ifodalanishi (L.Tolstoy, V.Garshin), Birinchi jahon urushining rus xalqi boshiga solgan og‘ir sinovlari aks ettirilgan asarlar asosida A.Malishev, Chjen Lu-Yan, A.Ivanov, I.Gerasimova kabi olimlar urushga munosabatning salbiy xarakterdaligini ilmiy asoslaydilar. Zamonaviy rus harbiy prozasini tadqiq etgan D.Aristov, Y.Zadonskaya, N.Vigovskaya, V.Volkovalar esa Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi “leytenant prozasi” bilan afg‘on va Chechen urushlari mavzusidagi asarlarni qiyoslab, XX asr o‘rtalari va XX asr oxir-XXI asr boshlari davridagi rus adabiyotida urushni rad etish ruhi ustun turishini isbotlaganlar.

ADABIYOTLAR

1. Малышев А.А. Художественная баталистика в русской литературе второй половины XIX века (кампании 1853–1856 и 1877–1878 гг.) Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Тверь, 2006.

2. Чжен Луянь. Человек на войне в ранном творчестве Л.Н. Толстого (в свете идей китайской философии). Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Иваново, 2015

3. Иванов А. И. Первая мировая война и русская литературат 1914-1918 гг.: этические и эстетические аспекты. Автореферат дисс.док.филол.наук. – Москва, 2005

4. Герасимова И.Ф. Патриотические мотивы в русской военной поезии начального периода Первой мировой войны // Вестник Нижегородского университета. Языкознание и литературоведение. – 2014, № 2. С.19-22.

5. Топер П.М. Война и история (Советская литература о Великий Отечественной войне в контексте мирового литературного контекста). – Москва: Наука, 1985.

6. Аристов Д.В. Русская батальная проза 2000-х годов: традиции и трансформации. Автореферат дисс. ...канд.филол.наук. – Пермь, 2013.

7. Волкова В.Б. Концептосфера современной военной прозы. Автореферат дисс.док.филол.наук. – Екатеринбург, 2014

8. Задонская Е.В. Авторские стратегии в современной военной прозе. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Тверь, 2017.

9. Выговская Н.С. Молодая военная проза второй половины 1990 – начала 2000-х годов имена и тенденции. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Москва, 2009